

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA`LIM  
VAZIRLIGI**

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI**

**Ro'yxatga olindi:**

**No** \_\_\_\_\_

“\_\_\_” \_\_\_ 2022 yil

**“TASDIQLAYMAN”  
O'quv ishlari bo'yicha prorektor  
Bozorov O.N.  
“\_\_\_” \_\_\_ 2022 yil**

**GEOTEKTONIKA VA GEODINAMIKA  
FANINING ISHCHI O'QUV DASTURI  
(SILLABUSI)**

Bilim sohasi:	300000 -	Ishlab chiqarish texnik soxa
Ta'lim sohasi:	310000 -	Muhandislik ishi
Ta'lim yo'nalishi:	5311700 -	Foydali qazilma konlari geologiyasi, qidiruv va razvedkasi (neft va gaz konlari)

<b>Fan/modul kodi</b>	<b>O'quv yili</b>	<b>Semestr(lar)</b>	<b>ECTS-Kreditlar</b>
GG3504	2022-2023	5	4
<b>Fan/modul turi</b>	<b>Ta'lif tili</b>	<b>Haftadagi dars soatlari</b>	
Tanlov	O'zbek	3	
<b>1.</b>	<b>Fanning nomi</b>	<b>Auditoriya mashg'ulotlari (soat)</b>	<b>Mustaqil ta'lif (soat)</b>
	<b>Geotektonika va geodinamika</b>	45	75
120	120		
2.			<p>I. Fanning mazmuni.</p> <p>1.1 Fanni o'qitish maqsadi va vazifalari:</p> <p><i>Fanni o'qitishdan maqsad</i> – talabalarda “Foydali qazilma konlari geologiyasi va qidiruv va razvedkasi (neft va gaz)” bo'yicha yo'nalish profiliga mos bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdir.</p> <p><i>O'quv fanini o'rGANISHNING ASOSIY VAZIFALARI</i> - Yer qobig'ining asosiy geotektonik elementlarini, qit'a va okean turdag'i qobiqning tuzilishi va elementlarini, litosfera plitalarining turlarini, strukturalarning xarakatlarini, deformatsiyasini va rivojlanishini, tektonik metodlar, tektonik harakat turlari, litosfera plitalari ichida sodir bo'ladigan jarayonlarini, platforma va geosinklinallarni, geotektonik strukturalarning geodinamik shart-sharoitlarini o'rgatishdan iborat.</p> <p>“Geotektonika va geodinamika” o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- bilimlarning bir butun tizimi bilan o'zaro bog'liqlikda ushbu fanning mazmuni, maksadi va vazifalarini;</li> <li>- Yer sayyorasi asosiy sferalaridagi geodinamik jarayonlarni;</li> <li>- Yer sayyorasining xarakatlanishi turlarini;</li> <li>- Yer po'stidagi xarakat va deformatsiya turlarini;</li> <li>- Yer qobig'ining geologik tarixining davriyligini;</li> <li>- geotektonik gipotezalar va ularning nazariy asoslarini;</li> <li>- qit'a, okean, o'rta okean tizmalarini hosil bo'lishini;</li> <li>- litosfera plitalarini, ularni chegaralovchi zonalarni xarakterli tomonlarini;</li> <li>- platformalar tuzilishi, ularning turlarini;</li> <li>- geosinklinal burmaghan mintakalar tuzilishini;</li> <li>- orogen turlari, ularning tuzilishi va rivojlanishini;</li> <li>- geotektonik metodlar turlarini bilishi kerak;</li> </ul>

- talaba geotektonik kartalarni o‘qish va chiza olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.

“Geotektonika va geodinamika” fani asosiy ixtisoslik fani hisoblanib, 4-kurs 8-semestrda o‘qitiladi. Dasturni amalga oshirish o‘quv rejasida rejulashtirilgan matematik va tabiiy (oliy matematika, fizika, nazariy mexanika), umumkasbiy (umumiyligi geologiya, strukturaviy geologiya va boshqalar) va ixtisoslik (litologiya va litofatsial taxlil va boshqalar) fanlaridan yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlik talab etiladi.

Davlat iqtisodiyoti rivojlanishi neft va gaz ishlab chiqarish sanoati bilan uzlusiz bog‘liq bo‘lsa, sanoat rivojlanishi uchun yangi neft va gaz konlarini ochilishi o‘ta muhim ahamiyatga ega. Ushbu Geotektonika va geodinamika asoslari fani neft va gaz konlarini nazorat etuvchi strukturalarni ajratishda, uglevodorodlarni hosil bo‘lgan joylardan ko‘chib o‘tish jarayonlarini o‘rganishda, ularni izlash va razvedka qilish me’todlarini yaratilishida ilmiy asos sifatida xizmat qiladi.

O‘qitishning ilg‘or va zamonaviy usullaridan foydalanish, Yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o‘zlashtirishda darslik, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, ma’ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, virtual stendlar hamda ishlab chiqarishdagi namunalar va maketlardan foydalaniлади. Ma’ruza va amaliy mashg‘ulot darslarida mos ravishdagi innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalaniлади.

## **II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)**

### **Fan tarkibi mavzulari:**

<b>Nº</b>	<b>Mavzular</b>	<b>soat</b>
	<b>1- Modul. Geotektonika va geodinamika fanining umumiyligi asoslari</b>	<b>30</b>
1- ma’ruza	nning maqsad va vazifalari, asosiy bo‘limlari va ularning qisqacha mazmuni. <b>Fanning asosiy bo‘limlari: geotektonika, geodinamika va ularning izlanish obyektlari, xususiy vazifalari.</b> Neft va gaz konlari geologiyasi, geofizikasi, izlash va razvedka ishlarini rivojlantirishdagi o‘rnini va ahamiyatini.	5
2- ma’ruza	Geotektonika va geodinamikaning rivojlanish bosqichlari. <b>Geotektonik gipotezalar rivojlanish tarixi. Fanning geotektonik va geodinamik bo‘limlarini rivojlanish tarixi. Strukturalarni hosil bo‘lishi to‘g‘risidagi tushunchalar rivojlanishi. Gipotezalar asoslari, tushunchalari, ijobjiy va salbiy tomonlari. Geodinamika</b>	5

	<b>yo‘nalishini paydo bo‘lishi va uning axamiyati.</b>	
3- ma’ruza	tosfera plitalari va ularning geotektonik elementlari. Litosferaning geotektonik elementlari tasnifi. Platformalar va ularning tarkibiy qismlari. Geosinklinal va o‘tish hududlari.	5
4- ma’ruza	<b>Global geotektonika va geodinamika. Yer sayyorasining asosiy sferalari, ulardagi geodinamik jarayonlar.</b> Yerning ichki tuzilishi, asosiy ajratilgan sferalari: tektonosfera, litosfera, mantiya, yadro. Ularni o‘rganishdagi geologik ma’lumotlarni o‘rni. Ulardagi jarayonlar, harakatlar va deformatsiyalar. Yerning geofizik maydonlari qiskacha tavsifi. Konvektiv oqim va ularning oqibatlari. Litosfera plitalari joylashishi va harakatlari.	5
5- ma’ruza	<b>Yer sayyorasining harakatlanishi va turli faktorlar ta’sirida Yer po‘stidagi xarakatlar va deformatsiyalar.</b> Sayyoraning o‘z o‘qi atrofida aylanish xususiyatlari. Quyosh va oy ta’siri ostidagi xodisalar. Yer po‘stida kuzatilayotgan to‘lqinli deformatsiya. Global kuchlanish maydoni va yoriqlar sistemasi.	5
6- ma’ruza	<b>Yer qobig‘ining geologik tarixining davriyligi, geotektonik davriyli (sikllar) va geotektonik rivojlanish rejimlari.</b> Geologiya tarixini davrlarga bo‘linishi. Geoxronologik bo‘linmalar. Geotektonik sikllar. Platformali, geosinklinal va orogen rejimlar. Riftogen rejim. Ularda hosil bo‘ladigan va kuzatiladigan geotektonik elementlar.	5
7- ma’ruza	<b>Tektonosfera haqida umumiy tushunchalar.</b> Tektonosfera tushunchasi Yer po’sti va yuqori mantyanidagi tektonik holat. Tektonosfera tarkibi va tuzilishini o‘rganish.	
8- ma’ruza	<b>Yer qobig‘ining turli iyeararxik darajadagi geotektonik elementlar sistemasi.</b> Yer qobig‘ining geotektonik elementlarining iyeararxik darajaviy tasnifi. Platformalar, geosinklinallar, burmaghan kamarlar, o‘rtaliq massivlar umumiy tushunchalari. Ularni geotektonik rejimi tavsifi. ularning tarkibiy elementlari.	
9- ma’ruza	<b>Platformalar tuzilishi, ularning turlari va Yer qobig‘ida tarqalishi. Ularning asosiy geotektonik elementlari.</b> Platformalar tuzilishi, ularning xususiyatlari, Yer sharida tarqalishi. Platformalar poydevorini shakllangan vaqtiga qarab qadimgi va yosh platformalarga bo‘linishi. Platformani asosiy rivojlanish bosqichlari. Platformaning asosiy elementlari: plitalar, anteklizalar, sineklizalar, avlokogenlar va vallar.	
10- ma’ruza	<b>Geosinklinal viloyatlarni rivojlanish bosqichlari: boshlang‘ich, asosiy (geosinklinal) va yakunlovchi (ogen).</b> Geosinklinal viloyatlarni rivojlanishini davomiyligi, uzunligi va eni. Geosinklinal burmaghan kamar, uning ichki tuzilishi. Geosinklinal jarayonni davriyligi.	
11- ma’ruza	<b>Orogen ichi struktura elementlari: ko‘tarılma va tushirmalar, ularning sistemalari.</b>	

		Megantiklinal va megantiklinoriy va tog‘oldi tushirmalar, orogenichi botiqliklari. Epiplatformali va epigeosinklinal orogenlar.	
12- ma’ruza	<b>Qit’a va okeanlarning o‘zaro bir-biriga o‘tish mintaqalari</b> Passiv chet mintaqalarning tuzilishi va rivojlanishi. Faol chet qismlar va ularning rivojlanishi.		
13- ma’ruza	<b>Qit’a platformalari.</b> Qadimgi platformalar poydevorlarining ichki tuzilishi. Platformalar rivojlanish bosqichlari.		
14- ma’ruza	<b>Mantiyadagi konvektiv oqimlar</b> Yuqori mantiya va quyi mantiya chegarasidagi bog’liqliklar hamda konvektiv oqimlarning harakati		
15- ma’ruza	<b>Hozirgi zamon va yangi tektonik jarayonlar.</b> Hozirgi zamon va yangi (neo) tektonik jarayonlar va ularni o‘rganish usullari		
Jami:			30

## 2.2. Amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar.

Amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish bo‘yicha kafedra professor-o‘qituvchilari tomonidan ko‘rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Talabalar ma’ruza mashg‘ulotlarida olgan bilim va ko‘nikmalarni misol va masalalar yechish bilan mustahkamlaydilar hamda yanada boyitadilar. Bunga jamoa bo‘lib mashq qilish yo‘li bilan va mustaqil ishlash yo‘li bilan erishiladi. Mustaqil ishlashda darsliklarni, o‘quv qo‘llanmalarni, uslubiy qo‘llanmalarni, tarqatma va ko‘rgazmali ashyolarni ahamiyati kattadir.

Nº	Mavzular	soat
1- amaliy ish	Tektonik xaritalar tushunchasi	2
2- amaliy ish	Yerning ichki geosferalari	2
3- amaliy ish	Geologik ma’lumotlar asosida tektonik – sxema xarita tuzish	2
4- amaliy ish	Regional neftgazlilikni nazorat qiluvchi platforma ichi gumbaz ko’tarilmalarining geodinamik shakllanishi	2
5- amaliy ish	Surilmaosti kamarlarini geodinamik shakllanishini Farg‘ona tog‘ oralig‘I botiqligi	2
6- amaliy ish	Surilmaosti kamarlarini geodinamik shakllanishini Surxondaryo sinklinoriyasi	2
7- amaliy ish	Hisor tog‘ining janubi-g‘arbiy tizmalarining neftgazli regioni (JG’HNGR) ni tektonik tuzilishini o‘rganish	2
8- amaliy ish	Buxoro-Xiva neftgazli regioni (BXNGR) ni tektonik tuzilishini o‘rganish	1
Jami:		15

## 2.3. Laboratoriya ishlari bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

O‘quv rejalarida laboratoriya ishlari kiritilmagan.

2.4. Kurs ishi (loyihasi) bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar  
O‘quv rejalarida kurs ishi (loyihasi) kiritilmagan

### **III.Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar**

Ishlab chiqarish va bakalavriat amaliyoti jarayonida kon yoki konning texnologik jihozlari va texnologik sxemasini tanlash bo‘yicha texnik loyihalarning asosiy mazmunini o‘rganish. Ishlab chiqarish quvvatlarini tanlash, ajratib olish yo‘nalishi va usullari, boyitish usullari va boyitishning asosiy parametrlarini ishlab chiqish tizimini tanlash va loyihalash bilan bog‘liq boshqa qarorlarni o‘rganish.

Amaliy mashg‘ulotlarga o‘z-o‘zini tayyorlash va ma’ruza materialini o‘rganish. Ish dasturida taklif etilgan adabiyotlar bilan tanishish. Seanslar va reytinglarni topshirishga tayyorgarlik.

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanishga tavsiya etiladi.

- darslik va o‘quv qo‘llanmalar bo‘yicha fan mavzularini o‘rganish;
- tarqatma materiallar bo‘yicha ma’ruzalar qismini o‘zlashtirish;
- kompyuter texnologiyalari tizimlari bilan ishlash;
- maxsus adabiyotlar bo‘yicha referat va konspektlar tayyorlash;
- talabaning o‘quv va ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan adabiyotlar, monografiya va ilmiy to‘plamlarni chuqur o‘rganish;
- interaktiv va muammoli o‘qitish jarayonida faol qatnashish;
- masofaviy (distansion) ta’limni tashkil etishda qatnashish.

#### ***Tavsiya etilgan mustaqil ishlar mavzulari***

- Tektonikaning rivojlanish bosqichlari.
- Tektonikaning aloxida izlanish me’todlari. Tektonosferaning tuzilishi va tarkibi haqida umumiy tushunchalar.
- Geotektonika va geodinamika fanining boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi.
- Litosfera va astenosferani ajratish me’todlari. Izostaziyanini ro‘yobga chiqishi.
- Litosfera plitalarining yer sharida joylashishi, o‘lchamlari va qalinliklari.
- Litosfera plitalarining to‘qnashishi natijasida yuzaga keladigan holatlar.
- Riftogeniz tushunchasi. Qit‘a riftogenizi. Rift tizimlarining relyefi, strukturalari, va cho‘kindi formasiyasi. Geofizik tavsifi. Okeanik riftogeniz.
- Subduksiya rejimi. Subduksiya zonalarining relyefda namayon bo‘lishi.
- Subduksiya natijasida o‘ziga xos bo‘lgan tektonik relyef.
- Hozirgi zamon riftlar ichi tektonik va magmatik faollikning ko‘rinishi. Planetar darzlik. Chuqur va yoriqlar.
- Tektonikadagi oqimlar.
- O‘rta –okean tizmlari.
- Burmalangan mintaqalarning umumiy tavsifi.
- Qadimgi platformalarning poydevorlarining ichki tuzilishi.

	<ul style="list-style-type: none"> <li>– Geologiya tarixida tektonik gipotezalar. Ularning paydo bo‘lish sabablari, mohiyati va o‘z vaqtida asosliligi.</li> <li>– Mantiya va yadro tushunchalari. Maxorovich chegarasi.</li> <li>– Litosfera plitalarining astenosfera yuzasiga surilishi.</li> <li>– Astenosferaning xususiyatlari.</li> <li>– Spreding.</li> <li>– Subduksiya.</li> <li>– Obduksiya.</li> <li>– Kolliziya.</li> <li>– Kontenental riftlar.</li> <li>– Subduksiya zonalarining asosiy turlari va tektonik holati.</li> <li>– Subduksiya va magmatizm.</li> <li>– Transform yoriqlar. Mikroqit’alar.</li> <li>– Burmalangan mintaqalarning ichki tuzilishi.</li> <li>– Platformalarning rivojlanish bosqichlari.</li> <li>– Yer va Yer qobig‘ining asosiy geotektonik elementlari.</li> <li>– Litosfera plita va ularning turlari.</li> <li>– Geotektonik harakat turlari.</li> <li>– Neotektonika davri va uning ahamiyati.</li> <li>– Strukturalarni hosil bo‘lish mexanizmlarini o‘rganish.</li> </ul>
3.	<p><b>IV. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentsiyalar)</b></p> <p>Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• “Geotektonika va geodinamika” fanini yuqori darajada rivojlantirish omillari haqida <i>tasavvur va bilimga ega bo‘lishi</i>;</li> <li>• ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha qo‘llaniladigan asosiy masalalalarni yechish, har xil xususiyatlarini bilish va ulardan foydalanish <i>ko‘nikmalariga ega bo‘lishi</i>;</li> <li>• talaba olib boriladigan ishni mazmun-mohiyatini bilish, ulardan foydalanish <i>ko‘nikmalariga ega bo‘lishi</i>;</li> </ul>
4.	<p><b>Ta’lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Ma’ruzalar;</li> <li>• Interfaol keys-stadilar;</li> <li>• semenarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>• guruhlarda ishlash;</li> <li>• taqdimotlarni qilish;</li> <li>• individual loyihalar;</li> <li>• jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.</li> </ul>
5.	<p><b>Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil</p>

	mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test topshirish.
6.	<p><b>Talabalar bilimini nazorat qilish uchun baholash mezoni</b></p> <p>“Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi Nizom O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2018 yil 9 avgustdagi 19-2018 son buyrug‘i bilan tasdiqlangan va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2018 yil 26 sentabrdagi 3069-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.</p> <p>Ushbu Nizom asosida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi orqali baholashdan maqsad O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi PQ – 3735-son “Oliy ta’lim muassalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq ta’lim sifatini boshqarish orqali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga erishish, talabalarning “Foydali qazilmalarni boyitish va qayta ishlash asoslari” fanini o‘zlashtirishida bo‘shliqlar hosil bo‘lishini oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etishdan iborat.</p> <p>“Foydali qazilmalarni boyitish texnologiyasi” fanidan tuzilgan talabalar bilimini nazorat qilish va baholash jadvalining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>a) talabalarda Davlat ta’lim standartlarigamuvofiq tegishli bilim, ko‘nikma va malakalar shakllanganligi darajasini nazorat qilish;</li> <li>b) fanning asosiy tushunchalarini talabalar tomonidan tizimli tarzda va belgilangan muddatlarda o‘zlashtirilishini tashkil etish va tahlil qilish;</li> <li>c)talabalarda mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish;</li> <li>d) talabalar bilimini xolis vaadolatli baholash hamda uning natijalarini vaqtida ma’lum qilish.</li> </ul> <p><b>“Geotektonika va geodinamika” fanidan nazorat turlari va uni amalga oshirish tartibi</b></p> <p>Talabalarning bilim saviyasi va o‘zlashtirish darajasining Davlat ta’lim standartlariga muvofiqligini ta’minlash uchun quyidagi nazorat turlarini o‘tkazish nazarda tutiladi:</p> <p><b>JORIY NAZORAT</b> – talabaning fan mavzulari bo‘yicha bilim va amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat “ Foydali qazilmalarni boyitish texnologiyasi ” fanining xususiyatidan kelib chiqqan holda, amaliy mashg‘ulotlarida og‘zaki so‘rov, test o‘tkazish, nazorat ishi, mustaqil ish vazifalarini tekshirish shakllarda o‘tkaziladi;</p> <p><b>ORALIQ NAZORAT</b> – semestr davomida “Foydali qazilmalarni boyitish texnologiyasi” fani ishchi o‘quv dasturining tegishli (bir necha mavzularini o‘z ichiga olgan) bo‘limi tugallangandan keyin talabaning bilim va amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash va baholash usuli xisoblanadi. “Foydali qazilmalarni boyitish va qayta ishlash asoslari” fanidan oraliq nazorati bir semestrda bir marta yozma shaklda o‘tkaziladi;</p> <p><b>YAKUNIY NAZORAT</b> – semestr yakunida “Foydali qazilmalarni boyitish texnologiyasi” fani bo‘yicha nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarini talabalar tomonidan o‘zlashtirish darajasini baholash usuli xisoblanadi. Yakuniy nazorat “Foydali qazilmalarni boyitish va qayta ishlash asoslari” fanidan tayanch</p>

tushuncha va iboralarga asoslangan “og‘zaki” shaklida o‘tkaziladi.

Professor-o‘qituvchilar tomonidan “Foydali qazilmalarni boyitish va qayta ishlash asoslari” fanidan oraliq nazoratni o‘tkazish jarayoni kafedra yig‘ilishlarida davriy ravishda o‘rganib boriladi va uni o‘tkazish tartiblari buzilgan hollarda, oraliq nazorat natijalari bekor qilinadi hamda oraliq nazorat qayta o‘tkaziladi.

“Foydali qazilmalarni boyitish texnologiyasi” fanidan yakuniy nazorat dekanat tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida o‘tkaziladi. Yakuniy nazoratni o‘tkazish tartiblari buzilgan hollarda, yakuniy nazorat natijalari bekor qilinadi hamda yakuniy nazorat qayta o‘tkaziladi.

### Fan bo‘yicha baholash jadvali

Kurs	Semestr	Semestrdagi fanga ajratilgan soat	ma’ruza	Amaliy mashg‘ulotlar	Tajriba mashg‘ulotlar	Mustaqil ish soati	Ab-auditoriya baholari MB-mustaqlil ish baholari	Nazorat turlari							
								Ab	50	5	5	JN	ON	$\sum JN+ON$	
3	5	120	30	15		75	Ab	50	5	5	5	3	5	o.	5
							Mb	50		5					

### “Geotektonika va geodinamika” fanidan reyting ishlanmasi

T/R	Nazorat turlari	Soni	baho	Jami baho
1. JN umumiy 5 baho				
1.1.	Amaliy mashg‘ulotlarni bajarish	8	3-5*	5
2. ON umumiy 5 baho				
2.1.	1-oraliq nazorat,yozma ish (3 ta savol)	1	3-5**	5
2.3.	Mustaqil ish	2	3-5**	5
$\sum JN+ON$				
3. YAN				
3.1.	Yakuniy nazorat, yozma ish (5 ta savol)	1	5	5
Jami				

### “Geotektonika va geodinamika” fanidan baholash tartibi va mezonlari

“Foydali qazilmalarni boyitish texnologiyasi” fani bo‘yicha talabaning semestr davomidagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 5 tizimda butun sonlar bilan

baholanadi.

Ushbu 5 baho nazorat turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

**Yakuniy nazoratga – 5 baho.** Yakuniy nazoratda **5 ta** topshiriq bo'lib, shundan **2 ta** nazariy va **1 ta** amaliy topshiriq, 1 ta laboratoriya, 1 ta mustaqil ta'limdan beriladi, jumladan:

-auditoriyada o'tilgan mavzular bo'yicha **2 ta** nazariy va **1 ta** amaliy; 1 ta laboratoriya, mustaqil ishlar mavzulari bo'yicha **1 ta** nazariy topshiriqlar beriladi.

### **Baholash mezonlari**

\* Baholash quyidagi na'munaviy mezonlarga asoslanadi:

#### **5 – (a'lo) baho:**

Xulosa va qaror qabul qilish.

Ijodiy fikrlash olish.

Mustaqil mushohada yurita olish.

Olgan bilimlarni amalda qo'llash olish.

Mohiyatini tushunish.

Bilish,aytib berish.

Tasavvurga ega bo'lish.

#### **4 - (yaxshi)baho:**

Mustaqil mushohada yurita olish.

Olgan bilimlarni amalda qo'llash olish.

Mohiyatini tushunish.

Bilish,aytib berish.

Tasavvurga ega bo'lish.

#### **3 - (qoniqarli)baho:**

Mohiyatini tushunish.

Bilish,aytib berish.

Tasavvurga ega bo'lish.

#### **2 - (qoniqarsiz)baho:**

Dasturni o'zlashtirmaganlik.

Fanning mohiyatini bilmaslik.

Anniq tasavvurga ega bo'lmaslik.

Mustaqil fikrlay olmaslik.

1.1. Har bir juftlik darsiga ajratilgan baho maksimal 5 bilan baholanadi.

Joriy nazoratning mustaqil ishi uchun ajratilgan baho talabaning mustaqil ish savollariga yozma tayyorlab kelgan referati (yozma ishi, misollar yechimlari to'plami) asosida baholanadi.

\*\*2.1. Oraliq baholash yozma tartibda o'tkazilib, unda 3 ta savolga javob berilish so'raladi. Jumladan shulardan 2 tasi nazariy va 1 tasi amaliy savollar. Har bir savolga to'liq javob uchun 5 baho qo'yiladi. Bunda savol uchun:

- Agar savollar mohiyati to'la ochilgan bo'lsa 5 baho
- Savollarga umumiy javob berilgan, ammo ayrim faktlar to'liq yoritilmagan bo'lsa – 4 baho
- Savollarga javob yozishga harakat qilingan, chalkashishlar bo'lsa -3 baho
- Savollarga umuman javob yozilmagan yoki savollarda chalkashishlar bo'lsa – 2 baho

Oraliq nazoatning mustaqil ishi uchun ajratilgan baho talabaning mustaqil

ish savollariga yozma tayyorlab kelgan referati (yozma ishi) himoyasi asosida qo‘yiladi.

### **Yakuniy baholashda talaba 5 ta savolga yozma javob berishi lozim.**

Har bir savolga 5 baho ajratiladi.

- Agar savollarning mohiyati to‘la ochilgan, asosiy faktlar to‘g‘ri bayon qilingan bo‘lsa savolga 5 baho qo‘yiladi
- Savollarga to‘g‘ri javob berilgan, lekin ayrim kamchiliklari bor bo‘lsa savolga 4 baho qo‘yiladi
- Berilgan savollarda javoblar umumiy va kamchiliklar ko‘proq bo‘lsa 3 baho qo‘yiladi
- Savollarga to‘g‘ri javoblar bo‘lmaganda, kamchiliklar ko‘p bo‘lganda va to‘liq bo‘lmasa 2 baho qo‘yiladi.

### **“Foydali qazilmalarni boyitish texnologiyasi” fanidan nazorat turlarini o‘tkazish muddati**

Joriy nazorat o‘qituvchi tomonidan har bir (ikki) juftlik darsda baxolanib boriladi. Oraliq nazorat kalendar tematik rejaga muvofiq dekanat tomonidan tuzilgan reyting nazorat grafiklari asosida o‘tkaziladi. Yakuniy nazorat semestrning oxirgi 2 haftasi mobaynida dekanat tomonidan tuzilgan YaN grafigi asosida o‘tkaziladi.

Joriy va oraliq nazoratlarda saralash bahoidan kam baho to‘plagan va uzrli sabablarga ko‘ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so‘nggi joriy va oraliq nazoratlar uchun yakuniy nazoratgacha bo‘lgan muddatda topshirish uchun ruxsat beriladi va belgilangan tartibda qabul qilinadi.

Kasalligi sababli darslarga qatnashmagan hamda belgilangan muddatlarda joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarni topshira olmagan talabalarga fakultet dekani farmoyishi asosida, o‘qishni boshlaganidan so‘ng ikki hafta muddatda topshirishga ruxsat beriladigan grafik asosida joriy, oraliq va yakuniy nazoratlari qabul qilinadi.

Talabaning semestrda joriy va oraliq nazorat turlari bo‘yicha to‘plangan baholaridan biri qoniqarsiz deb topilsa u yakuniy nazorat ishiga kiritilmaydi.

Akademik qarzdor talabalarga semestr tugaganidan keyin dekanat tomonidan qayta o‘zlashtirish uchun bir oy muddat beriladi. Shu muddat davomida “Foydali qazilmalarni boyitish texnologiyasi” fanini o‘zlashtira olmagan talaba to‘g‘risida fakultet dekaniga ma’lumot beriladi.

Talaba “Foydali qazilmalarni boyitish texnologiyasi” fani bo‘yicha nazorat natijalaridan norozi bo‘lsa, u nazorat turi natijalari e’lon qilingan vaqtidan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimnomasiga ko‘ra rektor buyrug‘i bilan 3 (uch) a’zodan kam bo‘lмаган тарқибда апеллясиya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellyatsiya komissiyasi talabalarning arizalarini ko‘rib chiqib, shu kunning o‘zida xulosasini bildiradi.

Baholashning o‘rnatalgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o‘tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi kafedra mudiri tomonidan nazorat qilinadi.

**7.**

## **Adabiyotlar**

### **Asosiy adabiyotlar:**

- Хаин В.Е., Ломизе М.Г. Геотектоника с основами геодинамики: М. КДУ, 2005.
- Гаврилов В.П. Геотектоника, М., РГУ нефти и газа, 2005.
- Бакиров Э.А. и др., Геология нефти и газа, М, Недра, 1990.
- Richard C. Selley. Department of Geology Imperial College. Elements of petroleum geology. Sekond Edition. London, United Kingdom-1998.
- Sultonov.Sh.A. Geotektonika. O'quv – uslubiy qo'llanma Qarshi – 2014
- Sultonov.Sh.A, Ochilov.I.S. Geotektonika va geodinamika. O'quv-uslubiy qo'llanma. Qarshi – 2019 yil.

**Qo'shimcha adabiyotlar:**

- Abidov A.A. Dunyo neftgazli hududlari va akvatoriyalari. Toshkent, Sharq, 2009.
- Умурзаков Р.А. Региональные особенности поля тектонических напряжений отдельных сейсмоактивных областей Западного Тянь-Шаня // Проблемы сейсмологии Узбекистана. – Ташкент. 2007. № 4 –С. 133-137.
- Гаврилов В.П. Общая и региональная геотектоника., М., Наука,1986.
- Ахмеджанов М.А. Геотектоника, маъruzalар тўплами, ТДТУ, Т, 1995.
- Adilov.B.F. Regional geologiya va geotektonika. O'quv qo'llanma. - Toshkent.: LESSON PRESS 2015.

**Davriy nashrlar:**

“O'zbekiston konchilik xabarnomasi” – “Горный вестник Узбекистана”, “TDTU Xabarlari”, “Texnika yulduzlari”, “Узбекский геологический журнал”, “Горный журнал”, “Горный информационный аналитический бюллетень”, “Физико-технические проблемы горного дела”, “Подземные и шахтные строительства”, “Уголь”, “Минеральные ресурсы”, “Mining Jurnal”, “Mining in Canada”, “Mining and metallurgy”, “Mining Technology”).

**Internetsaytlari:**

- [www.gov.uz](http://www.gov.uz)
- [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
- www.orbita.uz
- www.google.com
- www.Ziyonet.uz

8.	<p><b>Instruktorlar:</b> <b>Sh.A.Sultonov</b> - QMII “Foydali qazilmalar geologiyasi va razvedkasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi.</p> <p><b>J.Sh.Rabbimov</b> - QMII “Foydali qazilmalar geologiyasi va razvedkasi” kafedrasi katta assistenti.</p> <p><b>Kafedra joylashgan joyi:</b> QarMII, Geologiya va konchilik ishi fakulteti binosi</p> <p><b>Telefon:</b> +998930710787, +998990640638</p> <p><b>mail:</b></p> <p><a href="mailto:jahongir1933@gmail.com">jahongir1933@gmail.com</a></p>
9.	<p>Fanning ishchi o‘quv dasturi o‘quv, ishchi o‘quv reja va Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti Kengashining 2022 yil “___” dagi __- sonli</p>

bayonnomasi bilan tasdiqlangan o‘quv dasturga muvofiq ishlab chiqildi  
Fanning ishchi o‘quv dasturi (sillabusi) “Konchilik ishi” kafedrasining  
2022 yil «\_\_» \_\_ dagi «\_\_» -son yig‘ilishida hamda “Geologiya va  
konchilik ishi” fakulteti Uslubiy Komissiyasining 2022 yil «\_\_» \_\_ dagi «\_\_  
» -son yig‘ilishida muhokama qilinib Institut Uslubiy Kengashiga tavsiya  
etilgan.

**Kafedra mudiri:** \_\_\_\_\_ **Sh.Sh.Turdiyev**

Institut Uslubiy Kengashining 2022 yil “\_\_” \_\_dagi \_\_ -sonli qarori bilan  
o‘quv jarayonida foydalanishga tavsiya etilgan.

**Geologiya va konchilik ishi**  
**fakulteti dekani** \_\_\_\_\_ **T.N.Yarboboyev.**

**Kelishildi:**  
**O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i:** \_\_\_\_\_ **Sh.Turdiyev**